

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MOSLASHTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI

¹Rahmatullayeva Mushtariy Parva qizi -Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi

²Norqulova Iroda-Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya:Maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy moslashtirish omillari va shart-sharoitlari, tizimli yondashuv asosida ijodiy-hamkorlik muhitiga asoslangan kasbiy moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish muammolari keltirilgan.

Kalit so‘zlar:pedagog,kasbiy moslashish,bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy bilim, ko‘nikish.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat va ta‘lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqishda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

-bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish mazmunini pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talab va takliflariga asoslanib belgilash;

-kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni sifatli o‘zlashtirilishning innovatsion potentsialini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va shart- sharoitlarni aniqlash;

-tizimli yondashuv asosida ijodiy-hamkorlik muhitiga asoslangan kasbiy moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish;

-bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini, nazariy masalalari va talabalarning mustaqil ta‘limi uchun xizmat qiluvchi yangicha nashrlar, elektron darsliklar, o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ma‘lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirish jarayonining bosqichlarini turlicha tavsiflanadi.

Xususan, tadqiqotchi olimi N.Egamberdieva moslashuv bosqichlarini quyidagicha izohlaydi:

1) muvozanatlashish - individ va muhit o‘rtasida o‘zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me‘yorlariga nisbatan hurmat ko‘rinishidagi muvozanatning vujudga kelishi;

2) soxta adaptatsiya - sharoitga tashqi moslashuv va uning me‘yorlariga

nisbatan salbiy munosabat birligi;

3) ko'nikish - yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;

4) o'xshatish - individning psixik qayta orientatsiyasi, avvalgi qarashlar, orientatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi.

A.Jo'raev esa bo'lajak o'qituvchilarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv bosqichlarini boshlang'ich davr, ko'nikish davri, akkomadatsiya davri, assimilyatsiya davrlariga bo'lib o'rganadi¹. Bunda individning qadriyatlar tizimidan individ, guruh va muhit qadriyatlar tizimining o'zaro uyg'unlashuvigacha bo'lgan davrlar qamrab olinadi.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o'rganish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

I- bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik; kasbiy tasavvurlarning shakllanishi; kasbiy bilimlarning o'zlashtirilishi; kasbiy faoliyat talablarining anglanishi (pedagogika kollejaridagi umumta'lim va umumkasbiy fanlar mazmunida beriladigan ijtimoiy-nazariy va pedagogik-psixologik bilimlar vositasida).

II-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish; kasbiy kompetensiyalarni bilish, o'zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik; faoliyatga innovatsion yondashuvning qaror topishi .

III-bosqich. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish; kasbiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi; pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi umumkasbiy va maxsus fanlar, o'quv amaliyoti, mustaqil ta'lim vositasida.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan asoslash vazifasiga alohida e'tibor qaratildi.

Keltirilgan vazifalarning samaradorligini ta'minlashning muhim sharti bu bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv (tashqi va ichki) omillarni asoslashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik olim V.A. Slastenin bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya'ni kasbiy etuklikka erishishning ob'ektiv omillariga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo'nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas'uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi.

Shuningdek, pedagog olim bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi omillarni ham ikki turkumga bo'ladi: sub'ektiv (ichki) va ob'ektiv(tashqi) omillar. Muallif bo'lajak mutaxassisning kasbiy moslashuviga ta'sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog'lasa, ob'ektiv omillarga muhit va ta'lim shart-sharoiti bilan bog'liq jihatlarni taklif etadi.

Shuningdek, yana ba'zi bir psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning 4 guruhi ajratiladi. Birinchi guruh omillari ijtimoiy-iqtisodiy bo'lib, u taraqqiyotning turli boqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o'zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Birinchi navbatda bu kasblar turi, ularning o'zgarishi va rivojlanish istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga dahldordir. Ijtimoiy-psixologik omillar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Mazkur jarayonda shaxs ijtimoiylashuviga ta'sir etuvi mikro, mezo va makro muhit ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning qadriyatli yo'nalganligi, kasblarning turli guruhlariga munosabatning o'ziga xos ijtimoiy ko'rsatmalari va sterotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo'lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va xususiy qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o'ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat to'rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o'z ichiga olib, ulardan ko'p o'rganilgani nerv tizimining asosiy xossalarini faoliyat turlariga munosabatini ta'siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko'rinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishga ko'maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin bo'ladi.

Demak, mazkur fikrlar, ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida olingan kuzatish va empirik tahlil natijalarini nazariy jihatdan tahlil etish, umumlashtirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligi quyidagi omillarga asoslanishini aniqlandi:

- motivatsion omil - bo'lajak o'qituvchilarni tanlangan kasb va uning mohiyatidan xabardorlik darajasi, kasbiy yo'nalganlik va kasb tanlash motivlari bilan ifodalanuvchi jihatlar;

- ijtimoiy omil - jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhit va kasbning ijtimoiy nufuzi, shuningdek, talabalar tomonidan kasbiy - ijtimoiy normalarning o'zlashtirilishi, ijtimoiy tajribaning shaxsiy - kasbiy ustanovkalar tizimida qo'llanilishi;

- axborotli-mazmunli - omil-tanlangan kasbiy faoliyat sohasini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik va maxsus-metodik bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasi;

- faoliyatli omil - o'zlashtirilgan maxsus kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq vaziyatlar va zaruriy holatlarda tatbiq eta olish, o'zini-o'zi tahlil qilish va rivojlantirish motivatsiyasi;

- tashkiliy-metodik omil - innovatsion ta'lim turlari: shaxsga yo'naltirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, dasturiy ta'lim, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari, modulli ta'lim, mustaqil ta'lim va boshqalardan o'quv-tarbiya jarayonida samarali foydalanish; o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi; talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga egaligi, talabalarning bilim olishga nisbatan ijodiy yondashuvlari, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanganligi; axborotlashgan ijodiy muhitning qaror topganligi; sog'lom raqobatning mavjudligi; talabalar bilish

faoliyatining ob'ektiv baholanishi;

- didaktik omil (vositalar) - maxsus jihozlangan (kompyuterlash-tirilgan) o'quv xonalarining mavjudligi; o'quv manbalari (takomillashtirilgan o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, elektron ishlanmalar, grafik organayzerlar, auditiv vositalar), o'quv jihozlari va qurollari, axborot texnologiyalari.

Mazkur omillar va pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo'yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talablaridan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirish mazmuni bevosita ulardagi fiziologik, psixologik, ijtimoiy va tashkiliy molashish bilan belgilanishi ma'lum bo'ladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-nazariy tayyorgarligi motivatsion va ijtimoiy omillar ta'sirida kechib, uning mazmunida umumta'lim fanlari doirasida o'zlashtiriladigan axborotlar, bilimlar, fan asoslari muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning pedagogik-psixologik tayyorgarligi esa ta'lim-tarbiya jarayoni tamoyillari, ta'lim mazmuni va uning mohiyatini yorituvchi hujjatlar, o'qitish shakllari, metodlari va vositalari, shuningdek, ta'lim oluvchi shaxsining yosh va individual xususiyatlarini bilish hamda ularning psixologik holatini boshqara olish borasidagi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda tadqiqotlar doirasida bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy faoliyatga amaliy- faoliyatli moslashish ko'nikmalari bevosita maxsus-metodik tayyorgarlik negizida shakllanishi ma'lum bo'ldi. Bunda ta'lim oluvchining o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri loyihalashtirish va amalga oshirish, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarish, Talabalarning bilish faoliyatini to'g'ri yo'naltirish, o'qitish, nazorat va baholashning shakl, metod va vositalaridan fan, mashg'ulot va mavzu doirasida samarali foydalanish ko'nikmalariga egalik darajasi asosiy komponentlar sifatida tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992. 160b.
2. Abduvalieva M.I. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirish va rivojlantirish: Ped.fanl.nomz. ... diss. - T.: 2008. -134 b.
3. Рахматуллаева, П. М., & Махкамова, М. А. (2022). ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 1), 160-163.
4. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
5. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).
6. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK

OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.

7. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

8. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

9. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO'LLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8413>

10. Rahmatullayeva, M., & Ahmedova, L. (2023). GO 'DAKLIK DAVRI TO 'G 'RISIDA PEDAGOGIK ILMIY DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

9. Rahmatullayeva, M. (2021). O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4).

10. Rahmatullayeva, M., & Karimova, N. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINING DOLZARB MUAMMOLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

11. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

12. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR VA UNI KORREKSIYALASH YO'LLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

13. Rahmatullayeva, M., & Toshbekov, H. (2023). PSIXOLOGNI PSIXOMETRIK JIHATIDAN TAYYORLASH TALABLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).

14. Abdulla, Sharafitdinov, and Yuldasheva Sojida Zoyirovna. "ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 432-436.

15. Zoirovna, Yuldasheva Sojida, and Nizomov Bekhruz Umarovich. "PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY." *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences* 1.12 (2022): 153-161.

16. Yuldasheva, Sojida. "IA KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA'NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G'OYALARI." *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании* 1.4 (2021).

17. Zubaydullaevna, T. N., Zoirovna, Y. S., Ugli, N. B. U., & Kizi, A. M. E. (2023, January). CONSIDERATION OF PSYCHOLOGICAL WAYS IN QUICK

MEMORIZATION PROCESS ENGLISH LANGUAGE. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 29-35).

18. Karakulova, U., Berdiyeva, S., & Rejepbayeva, A. (2023). O 'SMIRLIK DAVRIDA NOMOYON BO 'LADIGAN DEVIANT XULQ-ATVOR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).

19. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).

20. Abduvakilovna, K. U. (2022). O 'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI. O 'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 763-767.

23. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). O 'QITUVCHI VA TALABALAR O 'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).

24. Rahmatullayeva, M., Karakulova, U., & Anvarova, S. (2023). OLIY O 'QUV YURTLARIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8412>